

Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi
Namangan davlat universiteti
Amaliy xorijiy tillar kafedrası mudiri, PhD
E-mail: kulievadilshoda98@gmail.com
+998997913312
UDK: 398.8+81'255.4(=512.157=161.1)

QUMAN TOPISHMOQLARI RUS TILIDAGI TARJIMALARI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjimaning mohiyati, uning adabiyot va til rivojidadagi o'rni, shuningdek, Quman topishmoqlarining rus tiliga tarjimalari tahlil qilingan. Tadqiqotda metaforik obrazlarning tarjimada saqlanishi yoki o'zgarishi, tarjimonlarning uslubiy yondashuvi va milliy koloritni ifodalashdagi mahorati o'rganilgan. S. Malov, A. Garkaves va O. Janaydarov tarjimalari qiyoslab tahlil qilinib, obrazli vositalarning semantik va madaniy o'zgarishlari aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, metaforik obrazlarni adekvat yetkazish tarjimaning badiiy va madaniy qiymatini belgilovchi asosiy omildir.

Kalit so'zlar: Tarjima, Quman topishmoqlari, Metaforik obrazlar, Madaniy kontekst, Lingvistik tahlil

Кулиева Дилшода Алижон кизи
Наманганский государственный университет
Заведующая кафедрой практических иностранных языков, PhD
E-mail: kulievadilshoda98@gmail.com
+998997913312
UDK: 398.8+81'255.4(=512.157=161.1)

АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ КУМАНСКИХ ЗАГАДОК НА РУССКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В главе рассматривается сущность перевода, его роль в развитии языка и литературы, а также анализируются русские переводы куманских загадок. Основное внимание уделяется сохранению и трансформации метафорических образов, стилевым особенностям переводчиков и передаче национального колорита. На основе сопоставительного анализа переводов С. Малова, А. Гаркавца и О. Жанайдарова выявлены семантические и культурные изменения образных средств. Установлено, что адекватная передача метафорических образов является ключевым фактором художественной и культурной ценности перевода.

Ключевые слова: Перевод, Куманские загадки, Метафорические образы, Культурный контекст, Лингвистический анализ

Kuliyeva Dilshoda Alijon kizi
Namangan State University
Head of the Department of Practical Foreign Languages, PhD
E-mail: kulievadilshoda98@gmail.com
+998997913312
UDK: 398.8+81'255.4(=512.157=161.1)

ANALYSIS OF RUSSIAN TANSLATIONS OF CUMAN RIDDLES

Annotation

This chapter examines the essence of translation, its role in the development of language and literature, and analyzes the Russian translations of the Cuman riddles. The study focuses on the preservation and transformation of metaphorical imagery, translators' stylistic approaches, and their skill in conveying national color. A comparative analysis of translations by S. Malov, A. Garkavets, and O. Zhanaidarov reveals semantic and cultural shifts in figurative expressions. The findings indicate that the adequate rendering of metaphorical images is a key factor in maintaining the artistic and cultural value of a translation.

Key words: Translation, Cuman riddles, Metaphorical imagery, Cultural context, Linguistic analysis

Kirish

Inson faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima bir tilda yaratilgan matnni, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda boshqa bir til ichki imkoniyatlaridan foydalanib ijodiy qayta yaratishdir.[7.5] U orqali adabiyotda yangi bir asar paydo bo'ladi va yangi ruh va qahramonlar kirib keladi. Bu esa faqatgina adabiyot rivojiga xizmat qilibgina qolmay, o'sha millat tilini ham boyitadi, uning rivojiga hissa qo'shadi.

Tarjima xalqlarni bir-biriga bog'laydi, ularni tili farqli bo'lishidan qat'iy nazar dillarini yaqinlashtiradi. "U Sharq va G'arb madaniyatini boyitgan, payvandlagan, ulagan mislsiz ko'prik vazifasini bajargan"[8.19].

Bugungi kunda tarjima qilingan badiiy asarlar ko'p bo'lishiga qaramay, maromiga yetkazib qilingan tarjimalar kitobxonlar orasida o'z muxlislarini topmoqda. Tarjima asarlariga bo'lgan talabning yuqoriligi esa, tarjimonlar mohirligi-yu, xalqimiz adabiyotga kundan-kunga mehri ortib borayotganligidan darakdir. Xuddi shu kabi chet elliklarning bizning adabiyotga qiziqishlari asarlarimizni o'z ona tillariga tarjima qilinishlari soni oshib borayotganida kuzatamiz.

“Tarjima bir-biriga tipologik jihatdan yaqin bo'lgan tillar orasida nisbatan oson amalga oshiriladi. Tipologik jihatdan yaqin bo'lmagan tillarda esa tarjima bir oz muammoli kechadi”. [9.32] Bunga sabab, grammatik, stilistik, gap qurilishi turlicha bo'lgan tillarda asliyatni saqlab qolish bir muncha qiyinchiliklarni tug'dirishidadir. Bundan tashqari, badiiy vositalar, metafora, o'xshatish, jonlantirish kabi san'atlar tarjimasi bundan ham murakkablik kasb etadi.

Turli tillarda mavjud bo'lgan metaforalar o'rtasidagi farqlar tufayli uni tarjima qilish murakkab. Bir xalqning ijtimoiy-maishiy hayoti va tajribasi natijasida yuzaga kelgan metafora bilan yo'g'rilgan asarni boshqa bir tilda so'zlovchi xalq vakiliga ayni holda yetkazish tarjimondan yuksak mahorat talab qilishi tabiiy hol, albatta. Misol uchun, ingliz tilidagi metaforik tasvirlarni ko'p hollarda o'zbek tilida adekvat holda tarjima qilish mumkin emas yoki aksincha. Shuni inobatga olgan holda, metaforik tasvirni tarjimada o'zgartirish zarurati paydo bo'ladi. Bu almashtirish asl nusxaning ifoda darajasini saqlab qolishga va tarjimani idiomatik qilishga yordam beradi.[2.98]

Topishmoqlar tarjimasi boshqa janrlar tarjimasidan bir qadar farq qiladi. Masalan, maqollar tarjimasi uch xil yo'nalishda amalga oshiriladi: 1. To'g'ridan-to'g'ri tarjima 2. Qiyosiy tarjima 3. Umuman mos kelmaydigan tarjima.[1.305] Ammo topishmoqlar tarjimasi uchun bu yo'nalishlar mos kelmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, topishmoqlar tarkibidagi eng muhim element bu o'xshatish obyektidir. Agar biz uni tarjima qilinayotgan tildagi topishmoqlardan kelib chiqib, ularda ishlatiladigan so'zlar, o'xshatish obyektlaridan foydalansak, bu yangi

topishmoqlar paydo bo'lishiga olib keladi va yechimlar mos tushmasligi, ulardagi mantiqiy bog'lanish uzilishi mumkin. Shuning uchun topishmoqlarni so'zma-so'z, metaforik obrazlarni saqlagan holda tarjima qilish kerak deb hisoblaymiz. Rus va ingliz tilidagi tarjimalarni ham metaforik obyektlar saqlangan, metaforik obyektlar o'zgartirilgan kabi turkumlarga bo'lib tahlil qilindi.

Qo'lyozmadagi topishmoqlar uch tarjimon tomonidan rus tiliga o'girilgan bo'lishiga qaramay, ular bir-birini takrorlamaydi. A.Garkaves barcha topishmoqlarni tarjima qilish bilan birgalikda yechimga ega bo'lmaganlariga javob ham taqdim qilgan. Uning tarjima va transkripsiyalari nisbatan aniq va mukammaldir.

Adabiyotlar tahlili

Topishmoqlarni rus tiliga tarjima qilgan turkiyshunos olimlardan biri S.Malovdir. U 1930 yilga kelib[6.355] quman topishmoqlarining rus tilidagi tarjimalarini amalga oshirgan. Uning o'ziga xos jihati shundaki, u bu tadqiqotida V.Bang, Yu.Nemet va V.Radlovlar tarjimalarini qiyoslash orqali ilmiy nuqtai nazardan ochib berishga harakat qilgan. Shunga qaramasdan, u barcha topishmoqlarni rus tiliga tarjima qilmagan, ayrim topishmoqlar borasida biror fikr bildirmagan. Aynan shu tadqiqot ishida nemis olimlarining tarjimalarini qiyosiy planda tahlil qilgani diqqatga sazovordir. S. Malovdan keyin topishmoqlarni rus tiliga tarjima qilgan olim A.Garkaves bo'lib, u qo'lyozma ustida barakali mehnat qilgan. Uning to'rt jildlik "Codex Cumanicus: (Введение, Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, Факсимиле и построчная транслитерация. Транскрипция и пословный перевод; латинский, персидский, куманский и немецкий словари и вкрапления из других языков)"[4.82-86] nomli monografiyasi hamda qo'lyozma tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha maqolalari mavjud. Uning bu kitobi ikki marta nashrdan chiqqan bo'lib, keyingi nashrda tuzatish va to'ldirishlar amalga oshirilgan. A.Garkaves qo'lyozma matni ustida ishlagan, ammo topishmoqlarning rus tilidagi tarjimalari bilan cheklangan, ularni qo'shimcha tahlilga tortmagan.

Jumboqlar tarjimasi bilan mashg'ul bo'lgan O.Janaydarov, garchi barcha topishmoqlarni rus tiliga tarjima qilmagan bo'lsada, uning tarjimalaridagi farqli jihatlar ularni yanada chuqurroq tahlilga tortishimizga yordam beradi. [3]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarjimaiy, lingvokulturologik, struktur-semantik va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Maqolada Quman topishmoqlarining rus tiliga tarjima jarayonida ularning semantik, madaniy va obrazli jihatlari qanday aks etgani tahlil qilindi. Tarjima tahlilida so'z tanlovi, metaforik birliklar, madaniy konnotatsiyalar va topishmoq strukturasi asosiy e'tiborda bo'ldi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod yordamida Quman topishmoqlarining boshqa turkiy xalqlar topishmoqlari bilan genetik va tipologik o'xshashliklari aniqlanib, tarjimada milliy koloritning saqlanish darajasi baholandi.

Natijalar va ularning tahlili

Qo'lyozmadagi topishmoqlar uch tarjimon tomonidan rus tiliga o'girilgan bo'lishiga qaramay, ular bir-birini takrorlamaydi. A.Garkaves barcha topishmoqlarni tarjima qilish bilan birgalikda yechimga ega bo'lmaganlariga javob ham taqdim qilgan. Uning tarjima va transkripsiyalari nisbatan aniq va mukammaldir.

A) Metaforik obrazlar saqlangan topishmoqlar.

Bu turkumga: II; XIV; XVI; XVIII; XXI; XXIV; XXVIII; XXIX; XXXI; XXXIII; XXXVII; XXXVIII; XL; XLII; XLV.

Topishmoqning javobi uning matnida badiiy tasvir usullaridan foydalangan holda mohirlik bilan yashiriladi. Demakki, matndagi o'xshatilayotgan narsa tarjima jarayonida o'zgarib qolsa, uning yechimiga ham ta'sir qiladi. (masalan, I topishmoqda tomchi metaforik obyekt bo'lib kelgan va u tarjimada cho'g'ga aylanib qolgan) Topishmoqlarning rus tilidagi tarjimalarida bunday holatlar bir necha bor kuzatamiz.

O‘xshatish obyektlari saqlangan topishmoqlarda garchi ayrim so‘zlar va misralar tarjimasi g‘aliz bo‘lsa-da, bu narsa metaforik obrazni o‘zgartirmaydi. Masalan II topishmoq:

II	S.Malov	A.Garkaves:	O.Janaydarov
<i>biti bitiv bitirdi</i>	Пиши, пиши!	Я писала-писала-	Я писал-писал,
<i>bes agaega bitidi</i>	Написал.	писала,	На пяти деревьях
<i>koneṭuū juurd...</i>	На пяти деревьях	пять деревьев	расписал,
<i>kok jibekī εirmadim</i>	я написал.	исписала,	яЯ размешивал-
<i>(ol – kinādir</i>	Ртуть свою я замесил (juurdym)	ртуть мою я замесила,	размешивал,
	замесил (juurdym)	шёлк небесный мой	Шелковую ткань
	И обернул	скрутила. Это хна	свою не узнал.
	голубым своим		Это – хна-
	шелком.		краситель
	Это – хна, хенна		
	(красящее		
	растение		

II topishmoqning tarjimalaridan biror tarjimon qo‘lyozma matnidagi birinchi misraning ma’nosini tushunib yetmaganligini guvohi bo‘lamiz. Birinchi misrada “yozuv yoki bitikni yozib tugatdim” ma’nosida ishlatilayotgan bit – so‘zi omonimik ma’no hosil qilmoqda. Demak: “biti- yozib; bitiv-yozuv, bitik; bitirdim-tugatdim”. S.Malov, A.Garkaves va O.Janaydarovlar ushbu misrani turlicha talqin qilishgan. S.Malov buyruq maylidan foydalangan: “Пиши, пиши!”. A.Garkaves va O.Janaydarovlar deyarli bir xil tarjima qilishgan va I shaxs o‘tgan zamon fe’li bilan izohlashgan. Ammo qo‘lyozmani sinchiklab tekshirilganda ikkinchi “biti” so‘zidan keyin -v harfi borligi yaqqol ko‘zga tashlanadi va uning birinchi “biti” so‘ziga shaklan o‘xshasa-da, boshqa ma’no anglatishini tushunish mumkin. Ikkinchi misra barcha tarjimonlar tomonidan aniq tarjima qilingan. Uchinchi misradagi “könesuvum yuvurdim” – “simob suvimda yuvdim” jumlasida S.Malov tarjimasida: “Ртуть свою я замесил” – “o‘zimning simobimni qorishtirdim”, A.Garkaves tarjimasida: “ртуть мою я замесила” – “o‘z simobimni qorishtirdim” tarzida, O.Janaydarov tarjimasida esa yuqoridagi jumla “Я размешивал-размешивал” – “men qorishtirdim, qorishtirdim” tarzida tarjima

qilingan bo'lsa, oxirgi qatordagi *“kök yibekim čïrmađim”* – jumlasini S.Malov tarjimasida: *“И обернул голубым своим шелком”* – “Va uni ko'k ipakka chirmadim”, A.Garkaves tarjimasida: *“шёлк небесный мой скрутила”* – “havorang ipak bilan o'radim”, O.Janaydarov tarjimasida esa, *“Шелковую ткань свою не узнал”* – “Ipak matoyimni tanimadim” tarzida tarjima qilingan. Xina haqidagi ushbu topishmoq aslida xinani emas, balki xina qo'yish jarayonini tasvirlab kelmoqda. Birinchi qator xina qo'yib bo'linganini, ikkinchi qator esa qayerga chizilganini, uchinchi misra qanday bu jarayon bajarilgani va to'rtinchi misra natijada nima hosil bo'lganini ko'rsatmoqda. Yuqoridagi tarjimalar esa bu jarayonni qay tarzda aniq ko'rsatishini guvohi bo'ldik. Xulosa o'rnida birinchi misraning rus tilidagi yangi tarjimasi yaratilishi kerak deb hisoblaymiz.

Ayrim topishmoqlarda topilishi kerak bo'lgan buyumni faqatgina xususiyatlari tasvirlanadi. Bu esa uning tarjimasini yanada osonlashtiradi. Masalan quyidagi topishmoqda shunday holat ko'zga tashlanadi. S.Malov IV (*jitip jitip jrgalmaŋ jeindagi eayhalmal (ol uru)*) o'ra javoblik topishmoqni tarjima qilmagan, u V.Radlovning nemischa tarjimasini keltirgan, ammo o'zi fikr bildirmagan. A.Garkaves topishmoq tarjimasini birinchi nashrida *“Сколько ни толкай, не покачнётся”* – “qanchalik itarmang chayqalmaydi”, *“что внутри, не всплеснётся”* – “ichidagilari sochilmaydi” shaklida, ikkinchi nashrda esa, *“Сколь ни толкай, не покачнётся”* – “qancha itarmang chayqalmaydi”, *“и то, что внутри, не всплеснётся”* – “va ichidagi narsalari sochilmaydi” shaklida tarjima qiladi va uning javobini “don saqlanadigan chuqurlik” deb talqin qiladi. O.Janaydarov topishmoqni *“Лежит скрытно, не шевелится”* – “qimirlamay yashirib yotadi”, *“А что у него внутри – не проливается”* – “ichidagilari to'kilib ketmaydi” tarzida tarjima qiladi va topishmoqning javobini “g'udda” deb talqin qiladi. Yuqoridagi tarjimalarda o'raning xususiyatlari o'zgartirilmay tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz.

Ba'zan tarjimonlar metaforik obraz saqlanishi va topishmoq yechimi topilishi uchun xizmat qiladigan turli jumlalarni ham qo'shishlari mumkin.

Masalan quyidagi XIV topishmoqda bu holatga guvoh bo‘lamiz, ammo barcha tarjimonlar o‘z maqsadlariga erishganlar.

uzũ agaε basĩda

ulu bitiv bitidim

ke řan ovlu kelgay dep

keřea turup řahladi

(ol ka.. bile balik).

Qarmoq va baliq haqidagi topishmoqni S.Malov juda chiroyli tarjima qilgan hamda qo‘lyozmada “baliq” so‘zining boshidagi ikkita (ya’ni ka....) harfi ko‘ringanligini inobatga olib uning javobini “qarmoq” tarzida keltiradi.

A.Garkaves ham mazkur topishmoqni juda mohirona tarzda rus tiliga o‘giradi.

O.Janaydarov uchinchi misradagi “kẽřan ovlu kelgay dep” jumlasini “*Думая, что придут потомки золотой чешуи*”, to‘rtinchi misradagi “keřea turup řahladi” jumlasini “*сам сидел и ждал*” tarzida tarjima qiladi.

Topishmoqning so‘nggi misralari uchun turlicha tarjimalar mavjud bo‘lib, baxtsiz o‘g‘il, tangali o‘g‘il, tangali avlodlar kabi, ammo bularning barchasi qarmoqqa ilinishi kutilayotgan baliqni tasvirlaydi, tarjimada kerakli o‘rinlarda ma’no yetkazib berish uchun tarjimonning so‘z tanlash imkoniyatini hisobga olib, barcha tarjimalar maqsadga erishgan deya olamiz.

XVI (Běř bařlı ělçi kėliy[i]r. (**Ol, ětikten běř barmak ba[kar]**)) topishmog‘i A.Garkaves va O.Janaydarovlar tomonidan tarjima qilingan. Ikki tarjimada ham quman topishmog‘i chiroyli tarzda ifodalangan.

A.Garkaves:

Посол о пяти головах идёт.
Это пять пальцев ноги торчат из_под
подола

O.Janaydarov:

Пятиголовый посол к нам едет.
Это – выглядывающие из дырки в
сапоге пальцы

B) Rus tilidagi tarjimalarida metaforik obrazlari o'zgartirib tarjima qilingan topishmoqlar. Ushbu turkum o'z o'rnida ikki guruhga bo'lindi. 1-turkumga uch tarjimondan birortasi metaforik obrazni o'zgartirgan holatlar qamrab olindi. Ikkinchi turkumda esa barcha tarjimonlarda metaforik obraz o'zgartirib yuborilgan shakllar qamrab olindi.

1) Metaforik obrazlari ayrim tarjimonlar tarjimalarida saqlanib qolgan topishmoqlar. Bu turkumga I; VIII; XI; XV; XXV; XXVI; XXX; XXXIV; XXXV; XXXVI; XLI; XLIII; XLVII topishmoqlar kirgizildi.

Topishmoqlarning tarjimalariga e'tibor beradigan bo'lsak ulardagi mutarjimlar tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xosliklarni kuzatamiz.

Masalan I topishmoq tarjimasida:

Qo'lyozmadan:

S.Malov tarjimasini:

tap tap tamyzik,

Найди! найди! Это – капля,

tamadirgan tamizik

Каплющая капля.

kolagasi b...

Когда раздует (ся) костер,

kojedirgan tamyzik. (ol – kobelek)

То это – горящая головня. Это бабочка

S.Malov dastlabki ikki misrani mohirlik bilan tarjima qiladi, lekin keyingi ikki misrada uni «Когда раздует (ся) костер» – “agar gulxan puflansa”, «То это – горящая головня» – “unda bu yonadigan o'tin” tarzida tarjima qiladi. Olim tarjimada topishmoqdagi “ko'lankasi bor” iborasini “agar gulxan puflansa” hamda “kuyadirgan tomiziq” iborasini esa “unda bu yonadigan o'tin” tarzida tarjima qiladi. Qo'lyozmadagi mazkur topishmoqning javobi “kobelek” deb berilgan. “kobelek” Samarqand shevasida parvonani anglatadi va bugungi kungacha ushbu shevada “kobelek” ma'nosida istifoda etiladi. Ammo S.Malov uni “бабочка”-“kapalak” tarzida tarjima qilgan. Topishmoqning javobini A.Garkaves ham 2006 yilda nashr qilgan monografiyasida “бабочка”, 2019 yildagi monografiyasida esa “ночной мотылёк, бабочка” tarzida tarjima qilgan. A.Garkaves topishmoqni

1-nashr tarjimasida birinchi misrada “Угадай, угадай: капля”[5.74] tarzida tarjima qilgan bo'lsa, 2019 — yildagi tarjimada “Угадай, угадай / Кан-кан –

уголёк” tarzida beradi. Mutarjim keyingi tarjimada “капля” so‘zi o‘rnida “уголёк” so‘zidan foydalanadi. Chunki olim topishmoqning birinchi qatorini “у” unlisi orqali assonans yordamida qofiyalashga va shu orqali topishmoqqa hush ohanglik bag‘ishlashga harakat qilgan, ammo topishmoq matnidagi metaforik o‘xshatishni “tomchidan” – “bir parcha cho‘g‘”ga o‘zgartirib yuboradi. Natijada, topishmoqda tasvirlanayotgan obyekt “tomchi” emas, “bir parcha cho‘g‘” bo‘lib qolgan.

A.Garkaves 2006 yilgi nashri:	A.Garkaves 2019 yilgi nashri:	O.Janaydarov:
Угадай, угадай: капля, каплющая капля, горящая капля, у которой есть тень. (Это бабочка)	Угадай, угадай / Кап-кап – уголёк, каплей каплет уголёк, тень бросая за собой, горит-сгораёт уголёк. Это ночной мотылёк, бабочка	Вот летает уголек, Искры сыплет огонек, Мажется, как уголек, Вверх летит и поперек, Попадет на огонек И сгорит наш... Мотылек

Qozoq olimi O.Janaydarov to‘rt misrali topishmoqni olti misrali topishmoq tarzida tarjima qiladi. Unda ham metaforik obraz o‘zgartirilgan, “tomchi” emas, balki “cho‘g‘” obyektini tasvirlash uchun foydalanilmoqda. Ammo topishmoq javobi “parvona” deya to‘g‘ri tarjima qilingan.

Birinchi raqamli topishmoqning rus tilidagi adekvat tarjimasi sifatida A.Garkaves tomonidan 2006- yilda amalga oshirilgan tarjimani e’tirof etamiz.

Navbatdagi topishmoqda S.Malov va A.Garkaves tarjimalari adekvat bo‘lish bilan birga, O.Janaydarov tarjimasida o‘xshatish o‘zgarib ketmoqda. S.Malov V (*filovtin jagi filkip bolmaf, firma tonũ bugup b[ol]mas (ol j).*) topishmoqni tarjima qilar ekan, unga tuxum degan javob variantini taqdim qilgan, ammo qo‘lyozmada bu topishmoq javobi to‘liq berilmagan va bosh harfining o‘zi yozilgan.

S.Malov	A.Garkaves	O.Janaydarov
Рысью доху нельзя азгладить.	Жи́ра с рыси не	Верхнюю шубу нельзя стряхнуть,

Стеганую (на вате) шубу стряхнуть,	Нижнюю шубу нельзя
нельзя перегнуть. Это –	согнуть. Это – яйцо
яйцо	мою расшитую золотом
	шубу не свернуть. Это
	звёзд

S.Malov fikricha V topishmoq VI topishmoqdek *tuxum* degan javob variantiga ega, ammo A. Garkaves uning javobi *tuxum* emas, balki *yulduzlar* deb qabul qilgan. Ko‘plab izlanishlar va parallel topishmoq variantlari orqali bu topishmoqning asl javobi yulduzlar degan variant barcha turkiyshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. O.Janaydarov ham xuddi S.Malovdek “tuxum” degan javob variantini saqlab qolgan. O.Janaydarov tarjimasida silovsin obrazi yo‘qolib metafora faqatgina shubaga yo‘nalib qolgan. Topishmoqqa u taqdim qilgan javob ham muvofiq tushmaydi.

Ushbu topishmoqda ham metaforik obraz faqatgina A.Garkaves tomonidan to‘g‘ri tarjima qilingan.

2) Barcha tarjimonlar tomonidan tarjima jarayonida metaforik obrazlar o‘zgartirib yuborilgan. Bu turkumga XIII; XVII; XXXII, XXXIX; XLVI topishmoqlarni kirgizdik.

XIII topishmoq javobi haqida turli fikrlar mavjud bo‘lib, S.Malov topishmoqni tarjima qilmay, unga “tuzoq”, “bosh kiyim” degan javob variantlarini taqdim qilgan, xolos. O.Janaydarov ham bu topishmoqni tarjima qilmagan. A.Garkaves to‘rt qatorlik bu topishmoqdagi ma‘noni ochib berish uchun olti qatorga aylantirgan va ma‘noni to‘liq yetkaza olgan.

	На верхушке высокого дерева
<i>Uzû agaî basîda</i>	сидит птица ургувул;
<i>urguul atli kus olturur</i>	чтобы её застрелить,
<i>iam atma ar kerek</i>	нужен мужественный человек,
<i>eka uuna t.. kerek (ol – он должен быть стойким во всех отношениях ti).</i>	

(с обоих концов) > его сердцу необходимо каменное терпение. Это душа

Topishmoqda qo'llangan "urguvul" ismli qush "qirg'ovul" qushiga teng bo'lib, tarjimon rus tilida uni "фазан" deb tarjima qilmagan. Agar "qirg'ovul" – "фазан" deb tarjima qilinganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu qush faqat turkiy xalqlargagina ma'lum emasligini va u tabiatda keng tarqalganligini inobatga olgan holda ikkinchi misra uchun quyidagi tarjima variantini taqdim qilamiz: "судум нмуца фазан – qirg'ovul qushi o'tiradi".

Qo'lyozmada berilgan XVII *tav uftida talisman, tayagi bar bes batmā (tulkusigi tup)* topishmoq matni aniq bo'lsa-da, uning javobini o'qish anchayin qiyinchilik tug'diradi. O.Janaydarov uni XV topishmoq sifatida bergan. Yuqoridagi tarjimalarga e'tibor bersak, shu narsa ma'lum bo'ldiki, topishmoqda "botmon" – arxaik so'z ishlatilgan bo'lib, bu so'z bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan, og'irlik o'lchov birligi hisoblanadi. Topishmoqda bu so'z tayoqning vaznini ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu jumlaning to'g'ri tarjima qilish uchun botmon so'zining ma'nosi berilishi kerak. O.Janaydarov tarjimasida uning og'irlik o'lchovi ekanligiga ishora borligi sezilib turibdi, ammo bu narsa A.Garkaves tarjimasida oddiy so'zdek tarjima qilinmay tashlab ketiladi. Ushbu so'zni tarjima qilish kerak yoki yo'qligi haqida gapirganda, u milliy turkiy xos so'z bo'lgani uchun, qolaversa, bugungi kunda turkiy xalqlar tilida ham iste'molda mavjud bo'lmaganini hisobga olib, uni aynan qoldirish kerak deb o'ylaymiz. Ammo u og'irlik o'lchovi ekanligini ko'rsatib o'tish kerak. Yuqoridagi o'girishlardan O.Janaydarovning tarjimasi juda to'g'ri va tushunarli tarzda, ammo imloviy xato bilan yozilgan. Bundan tashqari A.Garkaves topishmoq javobi "tulkinining dumi" degan bo'lsa, O.Janaydarov esa "tulki va uning dumi" degan fikr bildirgan. Tarjimalari:

A.Garkaves:

На горе стоит супостат

O.Janaydarov

На горе стоит раздора причина,

с дубиною батманов в пять.

Палка у нее пяти батпанов весу.

Это хвост лисички

Это – лисица и ее хвост

XXXII topishmoqni (*o ʔlu ʔolulu ayrgã , otus tumẽ oneydiari (ol – kijas ay julaŋ)*) S.Malov tarjima qilmagan, A.Garkaves esa tarjimada *tuman* soʻzini tarjimasiz qoldirgan, shuningdek, “oʻynaydi” soʻzi “koʻtariladi” deb berilgan, bundan tashqari javoblar ichida “tong” degan jumlani ham qoʻshib qoʻygan. O.Janaydarov esa 32-raqamli topishmoqni 24-topishmoq sifatida tarjima qilgan. O.Janaydarov ham “tuman” soʻzini tarjima qilmagan boʻlsa-da, uni lashkar soʻzidan avval qoʻllab, lashkarlar sonini koʻrsatish uchun ishlatmoqda. Aslida “tuman” miqdorni bildiruvchi soʻz boʻlib, oʻn mingga teng. Bepoyon osmondagi son-sanoqsiz yulduzlarni nazarda tutmoqchi boʻlgan bu jumla, “oʻttiz tuman”, yaʼni son-sanoqsiz soʻzi oʻrniga ishlatilgan. Uning tarjimasi soʻzma-soʻz tarjima boʻlmasdan, quman jumbogʻining maʼnosini A.Garkaves tarjimasiga nisbatan aniqroq saqlagan:

A.Garkaves:

O.Janaydarov:

Разделившись направо, налево, Правое от левого отличил, Десять тридцать туменов возносятся ввысь. озер, тридцать туменов войска. Это – Это солнце, луна, звезды, заря солнце, луна и звезды.

XXXIX topishmoqni S. Malov tarjima qilmagan, A.Garkaves qoʻlyozmadagi “tap”- soʻzini alohida ikki nuqta bilan berilgan, deb hisoblaydi va bu soʻzni *topish*, *topishmoq* soʻzi bilan bogʻlaydi, ammo qoʻlyozma asl matnida bu soʻzlar oʻrtasida hech qanday belgi yoʻqligini hisobga olib aytish mumkinki, “tap” shu topishmoqning bir qismi boʻlishi kerak. Bu yerda yechim *eshik* ekanligini hisobga olsak, “tap” — eshik yopilgandagi ovozga taqlidni bildirmoqda. O. Janaydarovning tarjimasi esa uch misrali yangi bir topishmoq paydo boʻlishiga olib kelgan. U ham “tap” soʻzini “topmoq, topish” feʼli bilan bogʻlagan. Bundan tashqari u oʻtovning eshigi sifatida tarjima qilgan. Oʻtov eshigi matodan tayyorlangan va uni eshik oʻrnida osib qoʻyilishi, shuning uchun, uni topgandan soʻng uni koʻtarish kerakligini qatorma-qator aniq tasvirlaydi. Qoʻlyozmada esa yechim eshik deb berilgan, uning oʻtov eshigi ekanligi haqida hech qanday biror

belgi yo‘q. Bizningcha O.Janaydarov turkiy xalqlarning turmush tarzidan kelib chiqib bunday fikr bildirgan.

A.Garkaves:

O.Janaydarov:

tap artīda karp (ol – Угадай: за тобою – хлоп! Сначала найти надо, esikdir). Это дверь

Найдя, поднять надо,

А потом закрыть надо.

Это – вход в юрту.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu topishmoqni rus tilidagi muqobil shakli yo‘q deb hisoblaymiz.

XLVI topishmoq A.Garkaves va O.Janaydarovlar tomonidan tarjima qilingan. S.Malov bu topishmoqni ham tarjima qilmagan.

A.Garkaves:

O.Janaydarov:

<i>beltirdagi</i>	<i>bes</i> Пять нежеребившихся кобыл,	Снова эти пять прохвостов
<i>kuvluk</i>	находящихся у голеней,	из гнезда один за другим
<i>besibile kulūlamis</i>	ожеребились пятью.	будут появляться.
<i>(ol – jil kelga ġir).</i>	Это наступил год [срок: года	Это – наступление Нового
	гусята вылупились из яиц]	

Ammo tarjimalarda qo‘lyozmadagi so‘zlar ma’nosini tushunmaslik natijasida g‘alizliklar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, quman topishmog‘ida “o‘tgan yilgi besh biya, beshovi birga qulunlamish”, deb berilgan bo‘lsa, buni tarjimonlar turlicha talqin qilishgan. Buni A.Garkaves va O.Janaydarov tarjimalarida ham ko‘ramiz.

A.Garkaves qo‘lyozma matnidagi “Beltirdägi” – o‘tgan yilgi, bulturgi so‘zini “boldirdagi — находящихся у голеней” deb tarjima qilgan va shu so‘z topishmoqni o‘zgartirib yuborgan. O.Janaydarov ko‘p so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qigani tufayli o‘zgacha tarjima bergan, uning tarjimasida faqatgina qo‘lyozmadagi besh jumlasini saqlanib qolganini ko‘ramiz.

Yuqoridagi tarjimalarda qoʻlyozmadagi soʻzlar oʻzgartirilganligini hisobga olib, ushbu topishmoqning rus tilidagi muqobil shakli mavjud emas degan xulosaga keldik.

XVIII topishmoqning tarjimasini bermagan O.Janaydarov keyinchalik uni tarjima qilib topishmoqlar oxiriga 39-raqam bilan bergan boʻlishi mumkin degan taxminimiz ham bor. Ammo bu haqda ishonchli manba yoʻqligi uchun biror fikr bildirishdan yiroqmiz.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, quman topishmoqlari rus tiliga uch zabardast turkiyshunoslar tomonidan tarjima qilingan. Ulardan S.Malov ayrim topishmoqlar haqida umuman fikr bildirmagan va boshqalarining tarjimalari oʻrniga oʻz fikrlari bilan cheklangan. O.Janaydarov quman topishmoqlarining 39 tasini tarjima qilgan. Faqatgina A.Garkaves tadqiqida barcha quman topishmoqlarining transkripsiyasi va rus tilidagi tarjimalari berilgan. Bu tarjimalarning qay darajada adekvat tarjima ekanligini yuqorida turkumlarga boʻlib tadqiq qilindi. Eng muqobil tarjimalar A.Garkaves tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblaymiz.

XULOSALAR

Mazkur bobda tarjimaning mohiyati, uning adabiyot va til rivojidadagi oʻrni, shuningdek, Quman topishmoqlarining rus tiliga tarjimalari tahlil qilingan. Tarjima jarayoni ijodiy faoliyat sifatida baholanib, u millatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlash, tillarni boyitish va xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotda asosan metaforik obrazlarning tarjimada saqlanishi yoki oʻzgarishi masalasi markazda turadi. Quman topishmoqlari oʻziga xos badiiy vositalar — oʻxshatish, jonlantirish, metafora kabi unsurlar orqali mazmunan boy ifodalanadi. Shu bois ularni tarjima qilishda grammatik, madaniy va semantik tafovutlar katta ahamiyat kasb etadi.

Maqolada S. Malov, A. Garkaves va O. Janaydarovlarning rus tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, har bir tarjimonning uslubiy yondashuvi, soʻz tanlovi va obrazli ifoda vositalaridan foydalanish usullari oʻrganilgan. Ayrim

topishmoqlarda metaforik obrazlar asliyatga yaqin tarzda saqlangan bo'lsa, ba'zilarida ularning o'zgartirilishi kuzatilgan. Masalan, tomchi metaforasi ayrim tarjimalarda cho'g' yoki olov obraziga almashtirilgan. Bunday hol tarjimonning estetik va ritmik uyg'unlikni saqlash istagi bilan izohlanadi, biroq ba'zida topishmoqning mantiqiy yechimini o'zgartiradi. Shuningdek, tarjimonlar zarur hollarda obrazni aniqlashtirish yoki milliy koloritni saqlash uchun yangi so'z birikmalaridan foydalanishgan.

Metodologik jihatdan tadqiqotda qiyosiy-tarjimaiy, lingvokulturologik, struktur-semantik va deskriptiv tahlil usullaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Quman topishmoqlarining tarjimasida badiiy va madaniy ifoda darajasini to'liq saqlab qolish tarjimonning yuqori mahoratini talab qiladi. Shuningdek, metaforik obrazlarni adekvat tarzda yetkazish tarjimaning semantik to'liqligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asiljonova S. D. et al. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy, universal xususiyatlari va tarjima jarayonidagi muammolarning tahliliy natijalari //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 304-309.
2. Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский. –М.: УРАО, 2000. –С. 98.
3. Жанайдаров О. «Кодекс куманикус» //Коллеги — педагогический журнал. –Казахстана,1999. №4
4. Гаркавец А. Codex Cumanicus: (Введение, Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков, Факсимиле и построчная транслитерация. Транскрипция и пословный перевод; Латинский, персидский, куманский и немецкий словари и вкрапления из других языков.) – Алматы.: Болашак, 2019. – С. 82-86.
5. Гаркавец А.Н. Кыпчакское письменное наследие II. Памятники духовной культуры караимов, куманов-половцев и армяно-кыпчаков. – Алма-Ата: Касеан-баур, 2006. – С. 74.
6. Малов Е.С. К истории и критике Codex cumanicus // Известия Академии наук. Отделение гуманитарных наук. – М., 1930. – №5. – С.355.
7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент.: ФАН, 2005. – Б. 5.
8. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. –Тошкент.: Ўқитувчи, 1982 – Б. 19.

9. Рахимов Ғ. Таржима назариясига ва амалиёти. – Тошкент.: “Ўз.миллий энциклопедияси” нашриёти, 2016. – Б. 32.